

BOBURNOMA IS THE FIRST UZBEK THESAURUS

Parvina Nabiyeva

Master of Tashkent State University of Uzbek

Language and Literature named after Alisher Navoi

ANNOTATION

"Boburnoma" is a royal work of Zahiriddin Muhammad Babur. Scientists have determined that 28,000 words are used in this play, which has attracted the attention of many researchers. Although many scholars have worked on this work, there are still many unexplored issues. Boburnoma explains the names of places, personal names, plant names, as well as some words related to animals and plants. This is an example of the thesaurus, which is one of the most pressing problems in linguistics today. In this article, some of these words have been scientifically interpreted as thesaurus. In the process of creating the thesaurus of the work, we can achieve many new scientific achievements in computer linguistics.

Keywords: Thesaurus, personal names, place names, turban, recitation, concubine, court, burq, computer linguistics, commander, hierarchy, memoir

ANNOTATSIYA

"Boburnoma"- Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari. Ushbu asarda 28.000 ta so'z qo'llanilgani olimlar tomonidan aniqlanib, u ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortib keladi. Bu asar ustida ko'plab olimlar ish olib borgan bo'lsa-da uning hali o'rganilmagan masalalari ham yo'q emas.

"Boburnoma" asarida joy nomlari, shaxs nomlari, o'simlik nomlari, qolaversa, hayvonot va nabadotga oid ayrim so'zlar har jihatdan izohlangan. Bu esa hozirgi davrda tilshunoslik sohasidagi dolzarb muammolardan biri bo'lgan tezaurusga misol bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada shunday so'zlardan ayrimlari tezaurus sifatida ilmiy jihatdan izohlab berilgan. Asarning tezaurusini yaratish jarayonida kompyuter lingvistikasiga doir ko'plab yangi ilmiy yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Tezaurus, kishi nomlari, joy nomlari, salla, tilovat, kaniz, mahkama, bo'rk, kompyuter lingvistikasi, sarkarda, iyerarxiya, memuar

Buyuk sarkarda va sohirnafas shoir Zahiriddin Muhammad Bobur – jahonga mashhur "Boburnoma" asarining muallifi bo'lib, unga jahoniy shuhrat keltirgan mazkur asar uning "Devon", "Mubayyin" yoki "Aruz risolasi" dan ko'ra dolzarb masalalarni o'z ichiga olganligi bilan ahamiyatlidir. XV–XVI asrlarda Xuroson, Movarounnnahr, Hindiston, Afg'oniston, Eron va Turkiyada fors tili hamda adabiyotining nufuzini "Boburnoma" orqali bilish mumkin.

O'z navbatida, "Boburnoma" tarixiy-memuar asar bo'lib, unda muhim tarixiy voqealar bilan bir qatorda yuzlab tarixiy shaxslarning nomlari keltirilgan. Ushbu antroponimlarning ayrimlari haqidagi ma'lumotlar boshqa tarixiy asarlarda deyarli uchramaydi. Ushbu asar o'zining noyobliligi va muhim ma'lumotlarga boyligi bilan olimlarni lol qoldirgan.

Mazkur asarda tarixiy shaxslarning davlat boshlig'i va lashkarboshi sifatidagi faoliyati ko'p qirrali talqin hamda tahlil qilinib, unda ularning nasl-nasabidan tortib avlodlarigacha

qimmatli ma'lumotlar berilgan. Muallif har bir tarixiy shaxs va uning faoliyatini tahlil etar ekan, ularning shaxsiyati, fe'l-atvori, odamlar va oila a'zolariga bo'lgan munosabati, xarakteri, el-yurt orasidagi obro'si, ijobiy va salbiy qirralarining faqat eng muhim tomonlarini saralab talqin qiladi. Shu jihatdan, ushbu asarni tezaurus sifatida qabul qilish mumkin.

Dastlab, "tezaurus" atamasiga oydinlik kiritsak. "Tezaurus (thesaurus)" – grek tilidan olingan bo'lib, "xazina" degan manoni anglatadi. Tezaurus deganda, ma'lum bir sohaga tegishli to'liq ma'lumotlarni beradigan lug'atlar tushuniladi. Tezaurus bir tilli lug'atlarga qaraganda bir qancha afzalliklarga ega. Chunki, unda muayyan so'z har tomonlama yoritiladi. Uning yordamida elektron ko'rinishida so'z haqida to'liq ma'lumot olish bilan birga, vaqtimiz ham tejaladi.

Tezaurus lug'atda har bir so'zning sinonimi, antonimi, etimologiyasi, omonimi va u bilan birika oladigan so'zlar qatori ochib beriladi. Tezaurus birinchi navbatda, so'zlar va ularning matndagi qo'llanilishiga doir misollar izohlangan maksimal darajada to'liq lug'at hisoblanadi. Ular asosan, elektron ko'rinishida yaratiladi va muayyan predmetlar sohasini atroflicha tavsiflash vositasi hisoblanadi.

Keyingi paytlarda foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida tezauruslar giperhavolalar bilan ta'minlanmoqda. Virtual ensiklopediya sanalgan Vekipediya keltirilgan "tezaurus" atamasiga bag'ishlangan lug'at-maqolada semantik munosabatlar va assotsiativ bog'lanishlar haqida iyerarxiya munosabati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mazkur memuar asarda bir qancha tarixiy shaxslarning nomi va tavsifi berilgan. Masalan, asarda Bobur o'z otasi Umarshayx Mirzo haqida shunday yozadi: Tavalludi va nasl-nasabi. 860-yil (1455-yil)da Samarqandda tugildi. Sulton Abusaid Mirzoning to'rtinchi o'gli edi. Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo va Sulton Mahmud Mirzodan kichik edi.

Shakl-shamoyili: past bo'yli, yumaloq soqolli, sargish yuzli norgil kishi edi. To'nni rosa tor kiyar edi. Shunchalikki, belbog' bog'laganda qornini ichiga tortib bog'latar, bog'lagandan so'ng o'zini qo'yib yuborsa ko'pincha bog'lari uzilib ketardi. Kiymoq va yemoqda betakalluf edi. Sallani dastorpech (maxsus salla o'raydigan kishi) o'rab qo'yardi. U zamonda sallalar butun to'rto'rama bo'lardi. Tekis chirmab, uchini osiltirib qo'yardilar. Yoz paytlari mahkamadan boshqa yerlarda aksar mo'g'ulcha bo'rk kiyardi....

Fe'l-atvori: hanafiy mazhabida, pokiza e'tiqodli kishi edi. Besh vaqt namozni tark qilmasdi. Umriy namoz qazolarini butunlay tamomlagan edi. Aksar tilovat qilar edi. Hazrat Xoja Ubaydullohga murid edi. Suhbatlariga ko'p musharraf bo'lgan, Xoja ham uni farzand der edilar. Yaxshi savodi bor edi. "Xamsatayn" (Nizomiy Ganjaviy va Amir Xisrav Dehlaviy „Xamsa“lari), dostonlar va tarixlarni o'qir edi. Ko'pincha "Shohnoma" o'qir edi. She'riy iste'dodi bor, biroq she'r yozishga qunt qilmasdi. Adolati shu darajada ediki, Andijonning sharqiy tarafidagi tog'larning pastida Xitoydan kelayotgan ming qoramollik karvonni shunday qor bosdiki, ikki kishi qutulib qoldi, xolos.

Jang va urushlari. Uch marotaba saf tortib6 urush qilgan. Avval Yunusxon bilan Andijonning shimol tarafi – Sayhun daryosining yoqasidagi Takasekretku degan yerda.Yana bir marta Sulton Ahmad Mirzo bilan Shohruhiya va O'ratepa orasida, Xavos degan kentda urushib yengildi.

Viloyatlari: Otasi Farg'ona viloyatini bergan edi. Bir necha marotaba Toshkent va Sayram ham Mirzoning tasarrufida bo'ldi. Bu shaharlarni unga akasi Sulton Ahmad Mirzo bergan edi. Shohruxiyani firib bilan olib, ancha vaqt foydalanib turdi.

Avlodi: Mirzodan uch o'g'il, besh qiz qoldi. Bari o'g'lonlaridan kattasi men – Zahiriddin Muhammad Boburman. Mening onam – Qutlug' Nigorxonim. Yana bir o'g'li Jahongir Mirzo mendan ikki yosh kichik edi. Uning onasi Fotima Sulton mo'g'ulning tuman beklaridan birining qizi edi. Yana bir o'g'li Nosir Mirzo bo'lib, uning onasi andijonlik Umid ismli g'unchachi edi; u mendan to'rt yosh kichik edi. Qizlaridan kattasi Xonzodabegim men bilan bir onadan tug'ilgan edi, u mendan besh yosh katta edi. Men Samarqandni ikkinchi marta olganimda Shayboniixondek kishi bilan Saripulda chiqib urushdim, imkon boricha, g'ayrat va shijoatda xato qilmadik (hali o'z vaqtida bu haqda yozilur), biroq yengilib, besh oy qal'adorlik qildim. Qal'ani saqlash, uni mustahkamlash va sardorlikda kamchilikka yo'l qo'ymadik. Tevarakatrofdagi podshoh-u beklar hech qanday madad-ko'mak bermadilar, ruhim tushib, shaharni tashlab chiqdim.

Yana bir qizi Ruqiya Sultonbegimning onasi Maxdum Sultonbegim edi, uni Qorako'zbekim derdilar. ...

Amirlari: Xudoyberdi Temurtosh. U Hirot hokimi Oqbugabekning og'asi naslidandir. Sulton Abusaid Mirzo Jo'gi Mirzoni Shohruhiyada qamal qilganda, Farg'ona viloyatini Umarshayx Mirzoga berib, eshikog'alikka Xudoyberdi Temurtoshni tayinlagan edi. U paytda Xudoyberdi Temurtosh yigirma besh yoshda, yosh bo'lsa-da, tartibi, boshqaruv va ish tutishlari juda yaxshi edi. Bir-ikki yildan so'ng Ibrohim Bekchik O'sh atroflariga hujum qilganida, Xudoyberdi Temurtosh urushda ishtirok etib, shahid bo'ldi...

Yana biri Xoja Husaynbek, odmi va faqir kishi edi. O'sha payt rasmiga ko'ra, bazmlarda qo'shiqlarni yaxshi aytar ekan.....

“Boburnoma”da nabododga oid qiziqarli va muhim ma'lumotlarning keltirilganligi tezaurusning yana bir ko'rinishidir. Chunki, unda Farg'onadan Hindistonga qadar yerlarda joylashgan tog'li o'lkalarda o'sadigan daraxtlar, o'simliklar, o't-o'lan, gullar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Yana Hinduston mevalaridan biri keyladir (banan). Arablar uni “mavz” deb atashadi. Daraxti uncha baland emas, balki uni daraxt deb ham bo'lmaydi. O'simlik bilan daraxt o'rtasidagi bir narsa. Bargi amonqoraning bargiga o'xshaydi, ammo keyla bargining uzunligi ikki qarich bo'ladi, bargining o'rtasidan yurakdek bir shox chiqadi, g'unchasi shu shoxda bo'ladi va katta g'unchasi qo'y yuragi shaklidir, g'unchasining har bir bargi ochilganda, barg tubida qator olti-yetti dona gul ko'rinadi, bu qator gullar keylaga aylanadi. Ushbu yurakdek shox uzaygani sari o'sha katta g'unchani barglari ochilib, qator keyla gullari namoyon bo'ladi. Har bir keyla daraxti bir marta hosil berar emish. Keylani ikki yaxshi xususiyati bor: biri shuki, po'sti oson archiladi: ikkinchisi, uning danagi va tolasi bo'lmaydi, baqlajondan bir oz uzunroq va ingichkaroqdir, unchalik shirin emas. Ammo Byangola keylari juda shirin bo'larkan. Juda xushnamo daraxti bor. Keng-keng, xushrang yashil barglari chiroyli ko'rinadi.

Yana Hinduston daraxtlaridan biri taardir. Taarning shoxlari ham faqat tepasida o'sadi. Taarga ham xurmodek ko'za bog'lab, suvini olib ichadilar. Bu suvni taariy deydilar. Bu suv xurmo suvidan kuchliroq kayf beradi. Taar shoxlarida bir-bir yarim qari joyigacha birorta bargi

bo'lmaydi, undan keyin shoxning uchida o'ttiz-qirqta barg bir yerning o'zida to'da bo'lib yirik panjadek bo'lib yoyiladi. Bu barglarning uzunligi bir qariga yaqinroq. Hindustonlik xatni xuddi daftarga yozgani kabi shu barglarga bitadi. Yana hindustonliklar quloqlarining keng teshiklarida halqasi bo'lmasa, shu taar bargidan halqa yasab, osib oladilar. Quloqqa taqishlari uchun ushbu taar bargidan halqa yasab bozorlarda sotadilar. Tanasi xurmo daraxti tanasidan yaxshiroq va tekisroqdir.

Hindustonda tarqalgan yana bir qush — lo'chadir. Uni buqalamun ham deb ataydilar. Boshidan dumiga qadar besh- olti xil rangda. Uning bo'yni kabutarnikidek — qo'tpilib ketgan. Kattaligi kabki dariycha (xushovoz, katta tog' kakligicha) keladi, ehtimol, bu Hinduston kabki dariysidir. Chunki kabki dariy tog'larning eng baland joylarida yashaydi, bu ham tog' cho'qqilarida yashaydi. Bu qush Qobul viloyatidagi Nijrov tog'larida va undan quyiroqdagi tog'larda yashaydi. Undan yuqorida uchramaydi. Hindustonliklar qiziq bir narsani rivoyat qilib berdilar: qish kelishi bilan ular tog' etaklariga tushar ekanlar: ularni uzumzor bog'i ustidan uchirsalar, keyin aslo ucholmay qolisharkan, shu yo'l bilan tutisharkan. Go'shti juda shirin, halol hisoblanadi.

Hindustonda faqat o'sha yerga xos hayvonlar tarqalgan. Yovvoyi hayvonlardan biri fildir. Hindustonliklar uni „haatiy“ deb ataydilar, u Kalpiy viloyatining chegaralarida bo'ladi. Undan yuqori – Sharq tomonga qarab borgan sari yovvoyi fillar ko'proq uchraydi. O'sha yerlardan fil tutib keltiradilar. Kurara va Manikpurning o'ttiz-qirq joyidagi aholi fil ovlash bilan shug'ullanadi. U yerliklar hukumat mahkamasi oldida har bir fil uchun javobgardir. Fil ulkan va ziyrak jonivor. Nima desalar, tushunadi va nimani buyurishsa, bajaradi. Bahosi kattaligiga qarab belgilanadi, uni bo'yiga qarab sotadilar. Fil qancha katta bo'lsa, bahosi shuncha baland bo'ladi. Rivoyat qiladilarki, ba'zi orollarda bo'yi o'n qari keladigan fillar ham bor ekan. Bu yerlarda to'rt-besh qaridan baland fillarni uchratmadik. Fil faqat xartumi bilan yeb-ichadi. Xartumi bo'lmasa, u yasholmaydi. Xartumining ikki yonida yuqorigi jag'ida ikkita katta tishi bor. Shu tishlari kuchi bilan devor va daraxtlarni yiqitishi mumkin. Urushish va kuch ishlatiladigan har qanday ishni shu tishlari bilan bajaradi. Bu tishlarni oj deydi. Hindustonliklar bu tishlarni juda qadrlaydilar. Filning tuki bo'lmaydi. Hinduston xalqi uchun filning ahamiyati katta. Lashkardagi har bir guruhga (bo'linma, qism, otryadga) albatta bir necha fil hamroh bo'ladi. Filning ba'zi yaxshi xususiyatlari bor: u katta va tezoqar suvlardan og'ir yukni osonlik bilan ko'tarib o'ta oladi. To'rt yuz-besh yuz kishi tortadigan qozon aravasini (to'p ortilgan aravani) uch-to'rtta fil bimalol tortadi. Biroq, filga juda ko'p yemish kerak. Bitta fil ikki tuyaning yemishini yeydi.

Hindustonda ajoyib gullar o'sadi. Ulardan biri jaasundir. Ayrim hindustonliklar uni “gadhal” deb aytishadi. U giyoh emas, poyali daraxtdir. Tanasi qizil gulbun butasidan biroz balandroq, rangi anor gulidan ochroq, kattaligi qizil gulcha keladi, ammo qizil gul g'unchalaganidan so'ng ochilgach, faqat bir marta gullaydi; jaasun ochilganida esa, uning gulkosasi o'rtasidan yana bir enlik ingichka poya o'sib chiqib uzayadi va unda yana shu jaasunning gullari ochiladi. Natijada o'ziga xos diltortar bir gul paydo bo'ladi. Daraxt ustida juda xushrang va chiroyli ko'rinadi, uzoq turmaydi, bir kundayoq so'lib qoladi. To'rt oy yomg'ir mavsumida juda yaxshi va ko'p ochiladi, balki, aksari yil davomida ochilar. Shuncha ko'p bo'lsa ham hidi yo'q.

Bobur hatto Qobuldagi tog' etaklaridan birida 32–33 xil lola turi o'sishini kuzatgan va ularning ayrimlari haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan.

“Boburnoma”da joy nomlari tezaurusi alohida ahamiyatga ega. Asarning Movarounnahr, Qobul va Hindiston qismlarida joy nomlari haqida, ularning tabiati, o'simliklar olami, mevali bog'lari, hayvonot va qushlari, ob-havosi haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Joy nomlari tezaurusi:

Yana biri Marg'inondir. Andijonning g'arbida. Andijondan yetti yig'ochlik yo'lda. Yaxshi shaharcha, ne'matlarga boy: anori va o'rigi juda ko'p va yaxshi. Bir nav anori bo'ladi: yirikdona, deydilar, chuchukligidan biroz o'rik shirinligicha ta'mi bor. Samnon anorlaridan yuqori qo'ysa bo'ladi. Yana bir nav o'rik bo'ladiki, danagini olib, ichiga mag'iz solib quritadilar, buni subhoniylar deydilar, ko'p lazizdir. Ov qushlari yaxshi, oq kiyik shaharga yaqin joyda topiladi. Eli sort (tojik) dir, mushti yuguruk va serjanjal el. Jangarilik Movarounnahrda odatdir. Samarqand va Buxorodagi nomdor jangarilarning aksari marg'inonlikdirlar. “Hidoya” asari muallifi Marg'inonning Rushdon nomli kentidandir. Yana biri tog' etagida joylashgan Isfaradir. Oqar suvlari, safolik bog' va bog'chalari bor. Marg'inonning g'arbi janubidadir. Marg'inon va Isfara orasi to'qqiz yig'ochlik yo'ldir.

Mevali daraxtlari ko'p, biroq bog'larida aksar bodom daraxti ekiladi. Xalqining barchasi sort, forsiy so'zlashadi. Isfaradan bir shar'iy masofada janub tomonida tepaliklar orasida bir yirik tosh bor, uni “Sangin oyina (ko'zgu tosh)” deydilar. Uzunligi taxminan o'n qari keladi, balandligi ba'zi yeri odam bo'yi, ba'zi yeri pastligi kishi beligacha bo'lib, oynadek har nima aks etadi. Isfara viloyati tog' etagidagi to'rt bo'lukdan iborat: biri Isfara, biri Vorux, yana biri So'x, yana biri Hushyor. Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bilan Olachaxonga shikast berib, Toshkand va Shohruhiyani olgan paytda ushbu So'x bilan Hushyor tog' etaklariga kelib, bir yilga yaqin muddatni qiyinchilikda o'tkazib, Kobulga tomon yo'lga tushdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 288.
2. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019. – B. 283.
3. Rahimov A. Kompyuter lingvistika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011. – B. 155.